


2019 YIL YANVAR FEVRAL OYLARIDA QURILISH ISHLARI




Sirdaryo viloyatida joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida jami **104,0** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **105,1** % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **2,0** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **84,1** % ni tashkil etdi, Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **81,8** mlrd,so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,0** % ni tashkil etdi. Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga **20,2** mlrd,so'm qurilish ishlari to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,3** % ni tashkli etdi.

Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

ulushi (%da)




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **1,9 %** ni;

kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **78,6 %** ni;

Norasmiy sektorlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **19,5 %** ni tashkil etdi.

Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

jamiga nisbatan (%da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **1,9 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelib, OQOLTIN TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH unitar korxonasi tomonidan bajarilgan

Hududda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **78,6 %** ni tashkil etdi,

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **19,5 %** i to'g'ri keladi

Hududlar kesimida qurilish ishlari


№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-fevral (mlrd,so 'm)	2019 yil yanvar - fevral (mlrd,so 'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
	Viloyat bo'yicha jami:	79,6	104,0	105,1	100,0
1	Guliston sh.	36,3	49,5	109,5	47,6
2	Shirin sh.	3,2	4,1	104,4	4,0
3	Yangiyer sh.	6,4	8,2	101,5	7,8
4	Boyovut	4,9	6,2	101,4	5,9
5	Guliston	4,0	4,9	101,7	4,8
6	Mirzaobod	5,6	7,4	107,4	7,2
7	Oqoltin	1,8	3,0	137,7	2,9
8	Sardoba	1,9	2,4	101,9	2,3
9	Sayhunobod	4,0	5,2	103,1	4,9
10	Sirdaryo	5,6	7,6	109,2	7,3
11	Xovos	6,0	5,5	74,6	5,3

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Guliston shahrida **49,5** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ga o'sdi, Yangiyer shahrida **8,2** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,5 %** ga o'sdi, Sirdaryo tumanida **7,6** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,2 %** ga o'sdi, Mirzaobod tumanida **7,4** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,4 %** ga o'sdi, Boyovut tumanida **6,2** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,4 %** ga o'sdi.



Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari dan tashkil topdi, Ularning hajmi **74,0 mlrd.so'mni** tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmining **71,2 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi, Ularning hajmi **17,9 mlrd.so'mni** tashkil etdi, jami qurilish ishlari hajmining **17,2 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami **133,0 mlrd.so'm** to'g'ri kelib, jami qurilish ishlari hajmning **30,3 %** ni tashkil qildi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi



Nodavlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 98,0 mld.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 94,2 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6,0 mld.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 5,8 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,0 %ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
“Investitsiyalar va qurilish statistikasi”
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: G', Qarshiyev
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-27